



Biroq, ta'limga oid leksik birliklarga oid tadqiqotlar V.S Shapovalova, V.I. Tuzlukova, I.V. Kicheva, O.B. Dautova, Y.V Kadzukova, Y.V Slojenikin, A.N Rijov, S.M. Bok, E.J. Burge, I.A. Morrison kabi olimlar tomonidan alohida mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganilgan. Demak, soha leksik birliklarini guruhlariga ajratib tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

References

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти расмий сайти
<https://isrs.uz/uz/ozbekiston-yangiliklari>
2. Заварзина В. А. Новые актуальные термины сферы образования // Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – Пенза, 2020. – С. 114-116 .
3. Н.Рашидова. Лексико-семантический анализ арабизмов сферы Образования узбекистана. Автореферат диссертации доктора Философии (phd) по филологическим наукам. 2021. Ташкент. С. 53
4. Арнольд И.В. Преемственность в филологическом тексте // Труды Ин-та лингвистических исследований. Т. III. Ч. 1. СПб.: Наука, 2007. С. 26–29.
5. Майоров, А.П. Очерки лексики региональной деловой письменности XVIII века / А. П. Майоров. - Москва: Азбуковик, 2006. - 261, [1] с: ил., табл., факс.; 22 см.; ISBN 5-91172-002
6. Крысин 2004 – Л. П. Крысин. Социальная маркированность языковых единиц // Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. М.: Языки слав. культуры, 2004. С.-509.
7. Johnston J., Barker L. T. Assessing the impact of technology in teaching and learning: A sourcebook for educators. Institute of Social Research, University of Michigan, 2002.
8. Tilavova, M. (2021). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
9. Tilavova, M. (2021). The Impact Of Motivation In Learning Foreign Languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
10. Tilavova, M. M. (2022). EFFECTIVENESS OF STATE YOUTH POLICY IN OUR COUNTRY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 277-286.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TA'LIMGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TUZILISHI, ISHLATILISHIGA KO'RA TADQIQI

Tilavova Malika
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti kafedrası

Annotatsiya



Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. O'zbek va ingliz tillaridagi ta'limga oid leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari va yasashiga ko'ra turlarini aniqlash, tadqiq etish ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: To'liq va to'g'ridan-to'g'ri transkriptsiya, transliteratsiya, Britaniya Milliy Korpusini (British National Corpus), initsiallashtirish usuli, tortish usuli, akronimlash.

KIRISH

O'zbekistonning kelajakdagi ravnaqi va gullab yashnashida tilga berilayotgan e'tibor muhim tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Nafaqat ona tilimiz, balki xorijiy tillar ham farzandlarimizning yetuk kadr bo'lib yetishishi va zamon bilan hamnafas ilm fan yangiliklarini o'zlashtirishda, ilmiy izlanishlar olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir davlatning qudrati tinimsiz mehnat qiluvchi aql zakovat egalarining ilmiy sohada yangiliklari va izlanishlari bilan o'lchanadi.

Mamlakatimizda o'zbek va xorij tilshunosligi sohalarida fan taraqqiyoti dinamikasi sezilarli darajada yuksaldi. Bunda jahon tilshunosligi yutuqlaridan o'rinli foydalanish, ularni amalda qo'llash o'z ijobiy natijalarini berdi hamda erishilayotgan yutuqlarimiz nafaqat mamlakatimiz tilshunosligida, balki dunyo tilshunosligida ham ma'lum bo'lib bormoqda. Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda qilinishi lozim bo'lgan zarur tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularning sirasiga ingliz va o'zbek tillarida ta'limga oid leksik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari o'rganish hodisasi tadqiqi ham dahldordir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda.



Aynan ta'limga oid leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash, tadqiq etish ushbu maqolada o'z aksini topgan. Tilshunos olimlardan G.I Jelezovskaya, C.B Yeremina, L.V Lisochenko, V.M Sergevnina, Ch Stivenston, N.Rashidova ta'limga oid leksik birliklarni ta'lim tizimlariga uzviy bog'lab, ularning paydo bo'lishi, turlarini va tezaurusda, turli tilli lug'atlarda berilishlarini o'rganishgan.

Shuningdek ta'limga oid leksik birliklarga oid tadqiqotlar V.S Shapovalova, V.I. Tuzlukova, I.V. Kicheva, O.B. Dautova, Y.V Kadzukova, Y.V Slojenikin, A.N Rijov, S.M. Bok, E.J. Burge, I.A. Morrison kabi olimlar tomonidan alohida mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganilgan. Soha leksik birliklarini guruhlariga ajratib tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Tadqiqotga oid to'plangan materiallar tahlil qilinganida, ta'limga oid leksik qatlam barcha so'zlarni o'zlashtira olmasligi ma'lum bo'ldi. Ularning ichida mustahkam o'rin olib, aynan ta'lim doirasida faol qo'llanadiganlariga e'tibor qaratishimiz o'rinlidir. Masalan: matematika faniga oid (*logarifm, kosinus, sinus, gipotenuza*), chizmachilikka oid (*proektsiya, oktogonal burchak*), geografiyaga oid (*azimut burchagi, ekvator*) va boshqa mavzuiy guruhida qo'llaniladigan leksik birliklarda ham o'ziga xos faollik chastota xususiyati mavjud. Masalan: 1) **ta'lim turlari va yo'nalishlari:** *preschool education-maktabgacha ta'lim, secondary education-o'rta ta'lim, primary education - boshlang'ich ta'lim, bachelor degree-bakalavriat darajasi, master's degree - magistrlik darajasi*; 2) **ta'limda faoliyat olib boruvchi shaxslar:** *teacher - o'qituvchi, pupil - o'quvchi, student-talaba, falsafa fanlari doktori - doctor of philosophy, stajyor – tadqiqotchi - student researcher, professor - professor, dotsent - assosiated professor*; 3) **ta'lim muassasalari turlari:** *lyceum - litsey, school - maktab, institute - institut, university - universitet, ilmiy tekshirish instituti - scientific research institution, college - kollej*; 4) **dars turlari:** *lecture - ma'ruza, practical lesson – amaliyot darsi, laboratory work - laboratoriya ishi*; 5) **ta'limda tekshirish jarayoni:** *presentation - taqdimot, graduation project work - bitiruv loyiha ishi, scientific thesis - diplom ishi, dissertation - dissertatsiya,*



course work - kurs ishi; 6) **ta'limga oid hujjatlar**: ishchi dastur, namunaviy dastur, yuklama, shasiy ish reja, syllabus activity plan - mashg'lot rejasi, murabbiyning mashg'ulot daftari - kindergarten teacher's notebook, children list - bolalar ro'yhati, lesson plan - dars rejasi va h.

Soha leksik birliklarini muayyan tilda to'g'ri ifoda etib, ularning to'g'ri va optimal variantini tanlash masalasida ayni bir leksik birlikni birdan ortiq tushuncha uchun qo'llash yoxud bir tushunchani turli so'zlar bilan atash inkor qilinadi. Mazkur maydonda variantlilik, (dubletlik-sinonimlik), omonimlik va ayrim terminlardagi bo'yoqdorlik, ko'chma ma'nolik va iboralarga xos xususiyatlar mavjud. Rus tili va u orqali o'zbek tiliga g'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyatini to'g'ri aks ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi leksik birliklarning noqulayligiga sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi o'zbek tilida chet til terminlarining keragidan ortiq darajada o'zlashishi, ayrim leksik birliklarning yozilishi va talaffuzidagi har xillikning yuzaga kelishi kabi tilshunoslikning asosiy mezonlariga zid keluvchi holatlar ham uchrab turadi.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashib kirib kelgan ta'limga oid leksik birliklarni 1) to'liq va to'g'ridan-to'g'ri transkripsiya va transliteratsiya yordamida berilishini kuzatishimiz mumkin. Masalan: *mind-map, case study, swot, direct, moderator*; 2) ta'limga oid yarim o'zlashma leksik birliklar qatoriga: *shaxsga yo'naltirilgan dars, vizual qobiliyat, STEAM ta'lim*; semantik kal'kalarni *inklyuziv ta'lim, variativ sinf, ikki mutaxassislik diplom, binar himoya, mobil guruhlar* va boshqalar; 3) gibrid va yarimkal'ka o'zlashmalar jumlasiga *zoom orqali dars, smart-oliygoh* va h.

Ingliz tiliga esa ta'limga oid leksik birliklar lotin, yunon, fransuz tillardan Uyg'onish davrida o'zlashib kirib kelgan. Unda to'liq va yarim kal'ka leksik birliklar faolligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan: *analysis - tahlil, complex - murakkab, curriculum-dastur, formula - formula, terminus - termin, metaphor - metafora, philology-filologiya, lexicography-leksikografiya, revise-takrorlash, academic-akademik, monoligual-bir tilli, bilingual-ikki tilli, degree-daraja, dissertation-dissertatsiya, gestalt-geshtalt (tanqidiy fikrlash, muammo yechimi), bursary - talaba*



stipendiyasi, bubs grade-birinchi bosqich talabalai (tibbiyot kollejlarda), comedown-universitetni tark etmoq, commoner-stipendiya olmaydigan talaba, don-dars beruvchi hodim, lycée-litsey, prelims-bakalavr bosqichida birinchi imtihon, redbrick - moliyaviy mustaqil universitet, freshman – boshlang‘ich kurs talabasi, sophomore-litsey yoki universitet ikkinchi bosqich talabasi.

2020 yil COVID-19 pandemiyasi tufayli ingliz tilida *cyber learning, virtual learning, remote learning, zoom-bombing, digital divide* kabi leksik birliklar paydo bo‘ldi. Britaniyaning tilshunos olimlarining matn tahlillari asosida Britaniya Milliy Korpusini (British National Corpus) yaratilishi ham ingliz tilida ta’limga oid *concordance, cooccurrence, lemma, token* kabi yangi leksik birliklarni paydo bo‘lishiga olib keldi¹⁷.

Shunday qilib, muayyan soha leksik birliklarining nutq doirasidan til doirasiga o‘tishi va tegishli leksikografik manbalardan o‘rin egallashi lingvistik va ekstralingvistik hodisaning tabiiy mahsulidir¹⁸. Ushbu fikrlarga asos qilib yuqorida keltirilgan misollarni keltirishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ba’zi leksik birliklar ko‘p ma’noga ega bo‘ladi. Bunday ta’limga oid leksik birliklar maxsus polisemantik leksik birliklar deb ataladi. Vaziyat taqozosi bilan bunday leksik birliklarni muloqot jarayoni qo‘llash nutq tejamkorligiga ham o‘zining ijobiy ta’siri ko‘rsatadi, albatta. Masalan, *subject* – 1) *auditoriya xonalarida o‘qitiladigan fan yoki ma’lum bir fan majmuasi*; 2) *dars jarayonida bajariladigan mashg‘ulot*; 3) *ta’lim muassasasida qo‘llaniladigan bitimlar bo‘yicha mas’ul xodim*.

Shu bois ham bu leksik birliklar aynan ta’lim sohasida ish yuritish hujjatlari va ta’lim diskursida ishlatilishi tufayli ta’limga oid leksik birliklarga kiritilgan. Ba’zan, oddiy polisemantik so‘zlar bir nechta ma’noni bildirishi mumkin. Masalan, “*plot*” so‘zining ikkita ma’nosi ta’lim sohasiga mos keladi: 1) *the literary element that*

¹⁷Захаров В.П. Корпусная лингвистика: учебно-методическое пособие: Изд-во СПбГУ, 2005. 48 с.

¹⁸Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминлари: таҳлил ва тадқиқ. Монография. Тошкент. 2022.30 б.



provides the structure of the action of a story; 2) a graphic representation (such as a chart). Ko‘rib turganimizdek, asosiy ma‘nosi “er maydoni” bo‘lgan “**plot**” so‘zi ta‘lim doirasida ham foydalanilishi mumkin ekan. Demak, leksik birliklar ba’zida umumleksik so‘zlarning ma‘nosini kengaytirilishi yoki torayishi tufayli shakllanadi va ular aniq bo‘lgan kontekstda o‘z ma‘nosini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi “**qaydnoma**” leksik birligining 1) talabani oraliq va yakuniy nazorat baholari; 2) professor-o‘qituvchilarning ishga kelish vaqtda to‘plagan soatlari misolida qo‘llaniladi.

N.S. Atayeva “...terminlar ba’zida umumleksik so‘zlarning ma‘nosini kengaytirilishi yoki torayishi tufayli shakllanadi va ular aniq kontekstda o‘z terminologik ma‘nosini ifodalaydi”¹⁹ - deya fikrni bildiradi. Biz olimaning fikriga qo‘shilamiz. Har bir leksik birlikning ma‘nosi qo‘llanish jarayonida aniq kontekst yoki nutqda o‘z ma‘nosini ifodalaydi. Ta‘lim sohasidagi leksik birliklar va tushunchalar ta‘lim-tarbiya xodimlarining nutqida ancha faollashadi. Bundan tashqari, ta‘lim muassasalarida ish yuritish masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jurnallarda chop etilgan maxsus matnlarda ham ko‘plab ta‘limga oid leksik birliklarni kuzatishimiz mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida bir-biriga mos keladigan ta‘lim leksik birliklarining muqobillarini topish oson ish emas. Zero, ikkala mamlakatda ham ta‘lim sohasida ishlatiladigan so‘zlar ma‘nosi jihatdan farq qiladi. Ularda nafaqat polisemiya va omonimiya hodisalari kuzatiladi, balki antonimiya ham o‘z aksini topadi. Antonimlar leksik va morfologik bo‘lishi mumkin. Leksik antonim so‘zlarning qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi: *local education authority* – mahalliy ta‘lim hokimiyati va *foreign education authority* – xorijiy ta‘lim hokimiyati; morfologik antonimlar esa qo‘shimcha orqali ma‘nosini o‘zgartiradi: *philological* – filologiyaga tegishli va *non-philological* – filologiyaga tegishli bo‘lmagan, ya’ni nofilologik yo‘nalish nazarda tutiladi.

Ta‘limga oid leksik birliklar turli so‘z turkumlari yordamida yasalishii va ifodalanashi mumkin. Masalan:

Ot: grade – baho;

¹⁹Атаева Н.С. Инглиз ва ўзбек тилларида банк-молия терминларининг лексик-семантик хусусиятлари Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент, 2021. – 166 б.



Fe'l: graduate – bitirmoq;

Sifat: freshman – birinchi bosqich talabasi;

Sifatdosh: teaching assistant – o'qituvchiga yordam beruvchi bitiruvchi talaba ya'ni shogird.

Shuni ta'kidlash joizki, ta'lim leksik birliklarining aksariyati ot va fe'l so'z turkumlari yordamida yasaladi. Buning sababi shundaki, ot va fe'l so'z turkumlari ishtirokida hosil bo'lgan so'zlar nafaqat ob'ektlarni, balki jarayonlar, tushunchalar va hodisalarni anglatadi. Masalan: *plan – reja*, *graded reader – kitobxon*, *agreement – shartnoma* (talaba va ta'lim muassasasi o'rtasida). Shuningdek, ingliz tilida ta'limga oid leksik birliklar bir qator prefiks va suffikslar yordamida ham yasaladi. Masalan: “de-”; “in-”; “non-” prefikslari yordamida *decode words* – og'zaki va yozma nutq belgilar, *informative essay* – ma'lumot beruvchi insho, *non-literal language* – adabiyotga tegishli bo'lmagan singari ko'p tarkibli terminlar yasalgan. “-able”; “-ing”; “-(t)ion”; “-sion” suffikslari ishtirokida *recognizable words* – ma'lum so'zlar; *oral blending* – tovushlarni so'z yasash maqsadida qo'llanilishi; *narration* – hikoya; *comprehension* – anglamoq singari bir va ko'p tarkibli leksik birliklar yasalgan.

Mazkur sohaga oid leksik birliklar tizimida pedagogika, psixologiya, ilmiy-tadqiqot, gumanitar va aniq fanlar, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, siyosat kabi leksik birliklar ham qo'llaniladi. Shu sababli **credit** – ta'limda talaba tomonidan to'plab boriladigan kredit; **budget** – to'lovsiz ta'lim olish; **fees**-ta'lim olish maqsadida to'lanadigan to'lov; **orientation** – birinchi bosqich talabalarni tanishtirish jarayoni va **social number** -talabaning shaxsiy raqamli hujjati raqami, **agreement**- shartnoma va **renting-ijara**²⁰ kabi turli sohalar leksikasida qo'llaniladigan leksik birliklarni faoligini kuzatishimiz mumkin.

Anglashiladiki, ta'limga oid lug'atlarni yanada kengayishi faol kasbiy muloqot va yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarining fikr va g'oyalari amaliyotda joriylanishi, shuningdek, ta'lim dasturlari asosidagi o'zaro hamkorlik ishlari bois to'xtovsiz sodir

²⁰Merriam-Webster's Dictionary and Thesaurus.1232 P.2006.



bo'lmoqda. Ularda 1) affiksatsiya (muammoli vaziyat, zamonaviy ta'lim), prefiksatsiya (nomutaxassis, interfaol usul); 2) qo'shish (media ko'rinish, videodars, vebinar-muhokama); 3) abbreviatsiya-qisqartirish (MTM-maktabgacha ta'lim muassasasi; MT-masofaviy ta'lim) usullari orqali yasalgan leksik birliklar mustahkam o'rin egallamoqda. Ularda eng faol qo'llanildiganlaridan biri qisqartmalardir.

Sohaga oid qisqartmalarni qo'llanishi ham hozirgi kunda sermahsuldir. L.B. Tkachyova qisqartirilgan leksik birliklarni o'ziga xos sabablariga mufassar to'xtalib ular turli sohalarning rivojlanib borishi, maxsus sohaga oid terminlarning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi, integratsiyasi natijasida yangi gibridlangan terminlar paydo bo'lishi bilan izohlaydi. Yana bir sababi shundaki, til sohiblari kommunikatsiya jarayonini osonlashtirish, nutqini va vaqtini tejash uchun turli sohaga oid maxsus leksik birliklarini grammatik va morfologik nuqtai nazardan qisqartiradi²¹. Biz ham L.B. Tkachyova bildirgan talqinga qo'shilgan holda, qisqartirish usullari to'g'risida o'z mulohazamizni bildirib o'tamiz:

1. Initsiallashtirish usuli – bir nechta komponentdan iborat bo'lgan qisqartirilgan termin bo'lib, mazkur komponentlarning faqatgina birinchi harfidan shakllanadi: Ingliz tilida - IELTS – International English Language Testing System, TOEFL-Test of English as a Foreign Language, TESOL- Teaching English to Speakers of Other Languages, CEFR- Common European Framework of Reference for Languages, CLUSTER-Cooperation Link between Universities of Science and Technology for Education and Research. O'zbek tilida - BBB-Bilaman, Bilishni hohlayman, Bilib oldim; AKT-Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalari, ARM-Axborot Resurs Markazi.

2. Tortish usuli – komponentlarning ko'proq undosh harflaridan iborat bo'lgan termin: TECH - Technology, MICR - Microbiology, PHAR- Pharmacology.

3. Akronimlash – qisqartirilgan termin ba'zi hollarda fonetik nuqtai nazardan oddiy leksik birligi bilan to'g'ri kelishi mumkin: CAST-Center for Applied Special

²¹Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. – Томск: Изд-во Томского университета, 1987. – Б.131-132



Technology, GATE -Gifted and Talented Education, CAP - Central Auditory Processing.

Shunday yo'sinda, yangi leksik birlik paydo bo'ladi. Ular birlashib, gibridlangan yoki qisqartirilgan leksik birliklarga olib keladi, eski terminlar yangilanadi, yangi semantik ma'no kasb etadi. Yangi jihoz yoki hodisa vujudga kelishi bilan birgalikda, uni nomlash ehtiyoji ham paydo bo'ladi. Yangi ob'ektlarni, voqealarni, jarayonlarni, uslublarni nomlash uchun albatta, yangi maxsus leksik birliklar shakllanadi va ular butun dunyoga tarqaladi. Biroq, barcha inglizcha terminlarni o'zining fonetik, leksik va grammatik shaklida o'zbek tiliga to'g'ridan - to'g'ri qabul qilish noto'g'ri, chunki bu milliy leksik birliklar lug'atlarining rivojiga muayyan darajada to'sqinlik qiladi va o'zbek tilidagi terminlar ko'proq o'zlashtirma leksik birliklardan iborat bo'lishiga olib keladi.

XULOSA

Ta'limga oid leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlash, ularni o'rganib chiqish ushbu maqolada keng ko'lamda tadqiq etildi. Tilshunos olimlardan G.I Jelezovskaya, C.B Yeremina, L.V Lisochenko, V.M Sergevnina, Ch Stivenson, N.Rashidova ta'limga oid leksik birliklarni ta'lim tizimlariga uzviy bog'lab, turli tilli lug'atlarda berilishlarini o'rganishgan bo'lsa, ta'limga oid leksik birliklarga oid tadqiqotlar V.S Shapovalova, V.I. Tuzlukova, I.V. Kicheva, O.B. Dautova, Y.V Kadzukova, Y.V Slojenikin, A.N Rijov, S.M. Bok, E.J. Burge, I.A. Morrison kabi olimlar tomonidan alohida mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganilganligini bir necha misollar tahlili orqali ko'rib chiqdik. Ta'limga oid lug'atlarni yanada kengayishi faol kasbiy muloqot va yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarining fikr va g'oyalari amaliyotda joriylanishi, shuningdek, ta'lim dasturlari asosidagi o'zaro hamkorlik ishlari bois to'xtovsiz sodir bo'lishi va ularni yasalar yo'llari bo'yicha ham turlarini ko'rib chiqdik.

Demak, leksik birliklar nafaqat og'zaki nutq orqali, balki ta'lim sohasi bo'yicha nashr etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, turli lug'atlarga ham o'zlashib kirib kelmoqda. Ushbu birliklar lug'atlarda o'z ifodasini



to'g'ri topishi, aksar leksik birliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida tushunchalarni aniq va ravon ifodalashi, mazkur jarayonning hozirgi zamon talab darajasida bo'lishini ta'minlash tilshunos olimlarning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Ingliz va o'zbek tillaridagi ta'limga oid leksik birliklarning yasalishi, kelib chiqishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlari bu maqolada aks etgan. Shunday qilib, muayyan soha leksik birliklarining nutq doirasidan til doirasiga o'tishi va tegishli leksikografik manbalardan o'rin egallashi lingvistik va ekstralingvistik hodisaning tabiiy mahsulidir.

References

1. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: учебно-методическое пособие: Изд-во СПбГУ, 2005. 48 с.
2. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминлари: таҳлил ва тадқиқ. Монография. Тошкент. 2022.30 б.
3. Атаева Н.С. Инглиз ва ўзбек тилларида банк-молия терминларининг лексик-семантик хусусиятлари Филол. фан. д-ри. ...дисс. –Тошкент, 2021. – 166 б.
4. Merriam-Webster's Dictionary and Thesaurus.1232 P.2006.
5. Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. – Томск: Изд-во Томского университета, 1987. – Б.131-132
6. Tilavova, M. (2021). РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
7. Tilavova, M. (2021). The Impact Of Motivation In Learning Foreign Languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
8. Tilavova, M. M. (2022). EFFECTIVENESS OF STATE YOUTH POLICY IN OUR COUNTRY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 277-286.
9. Tilavova, M. (2021). The importance of learning a second language and its benefits for the individual. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
10. Tilavova, M. (2020). Language is a bridge to the wonders of the world. *Журнал дошкольного образования*, (1).

NAVIGATING THE COMPLEXITY OF TRANSLATION STUDIES

Tukhtanazarov Asadbek
student
UzSWLU

Abstract

Translation Studies delves into the intricate process of transferring meaning across languages and cultures. This multifaceted field encompasses linguistic, cultural, and philosophical dimensions, exploring the challenges and complexities of accurately conveying messages while preserving their intended impact. This article offers a good overview of the various challenges faced by translators and interpreters.